



BIRINCHI JAHON URUSHINING SHARQ MAMLAKATLARIGA TA'SIRI

Qo‘chqarov Temirbek Baxromjon o‘g‘li
Oriental universiteti o‘qituvchisi
Xurshidov Sharifjon Erkinjon o‘g‘li
Oriental universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Birinchi jahon urushining borishi Sharq mamlakatlariga ko‘rsatgan ta’siri va siyosiy jihatlari tahlil qilib o‘rganilgan. Urush natijasida mustamlakachilik siyosati kuchaygani, milliy ozodlik harakatlari avj olgani va iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlar yuzaga kelgani batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Birinchi jahon urushi, Sharq mamlakatlari, mustamlakachilik, milliy ozodlik harakatlari, mustaqillik kurashi, Yaqin Sharq, Osiyo, tarixiy o‘zgarishlar.*

Аннотация: В статье анализируется и изучается влияние Первой мировой войны на страны Востока и мировую политику. Война принесла экономические и социально-экономические выгоды, поскольку политика экономического колониализма усилилась, а национальное освобождение набрало обороты.

Ключевые слова: Первая мировая война, страны Востока, колониализм, независимость, борьба за независимость, Ближний Восток, Азия, исторические изменения.

Annotation: This article analyzes and studies the impact and political aspects of World War I on the countries of the East. It details the strengthening of colonial policies, the rise of national liberation movements, and the emergence of economic and social crises as a result of the war.

Keywords: World War I, Eastern countries, colonialism, independence, the struggle for independence, Middle East, Asia, historical changes.

Barchamizga ma‘lumki odamzod “urush” degan so‘zni eshitishi bilan ko‘z oldiga halok bo‘lgan bir necha yuz minglab insonlarning jasadlari, vayronkorliklar, to‘s-to‘polon va ochlik keladi. Urush insoniyatga hech zamonda yaxshilik olib kelmagan. Biroq, ming afsuslar bo‘lsinki, dunyo tarixida qonli to‘qnashuvlar juda

ko‘p bo‘lgan va hozir ham davom etib kelmoqda. Ma’lumki XIX asr oxiri XX asr boshlarida yevropa davlatlari o‘rtasidagi vaziyat judda keskin edi. Hatto yevropa davlatlari o‘rtasida katta ikki guruh ham paydo bo‘lgan bo‘lib, ikki o‘rtada bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib olish uchun kurash jiddiy ketayotgan edi. [1-B. 9] 1879 yilda Germaniya – Avstriya o‘rtasida harbiy ittifoq tuzildi. 1882 yilda bu ittifoqqa Shimoliy Afrikada hukmronlik uchun Fransiya bilan raqobatlashayotgan Italiya qo‘sildi. Shu tariqa “Uchlar ittifoqi” tashkil topadi. Bunga qarshi 1904 yilda eng ko‘p koloniyaga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya va Fransiya o‘rtasida mustamlakachilik masalasi bo‘yicha eng muhim shartnomalar imzolandi. Tomonlar urush vaqtida bir-birini qo’llab turishga kelishib olishdi. 1907 yilda Rossiya imperiyasi Buyuk Britaniya bilan xuddi shunday shartnomalar tuzdi. Shunday qilib, ikkita qarama-qarshi harbiy-siyosiy bloklar: “Uchlar ittifoq” (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya) va “Antanta” (Rossiya, Fransiya va Buyuk Britaniya) ittifoqlari tuzildi. [2-B. 15] XX asr boshlarida imperiyalar o‘rtasidagi ziddiyatning eng muhim sababi sanoat taraqqiyotining jadallahushi, industrial mamlakatlar sonining ko‘payishi bo‘ldi. Rivojlangan davlatlarning sanoat kapitallari o‘rtasida tashqi bozor uchun kurash ham boshlangan edi. XX asrning boshida dunyoning shunday hududlari belgilandiki, ularning geosiyosiy va iqtisodiy muhim ahamiyati tufayli bu yerlar ustidan nazorat o‘rnatalish uchun kurash boshlandi. Birinchi jahon urushi arafasida shunday hududlar sifatida Xitoy va Bolqon yarim oroli ajralib turardi. Xitoy va uning portlari ustidan nazorat o‘rnatalish keng bozorga va boy resursli yerkarda kirib borish imkoniyatini berardi. Bundan tashqari, Xitoy portlariga egalik qilgan mamlakat jahon taraqqiyotida roli tobora ortib borayotgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasini o‘znazoratida ushlab turishi mumkin edi. Dunyoning yetakchi davlatlari o‘z yovuz maqsadlari yo‘lida ma‘naviy tubanlikka ketib, boylik orttirish uchun millionlab insonlami qurban qilishga bel bog‘ladilar. [3-B. 23] Birinchi jahon urushi (1914–1918) nafaqat Yevropa davlatlariga, balki Sharq mamlakatlariga ham chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Urush global xususiyat kasb etgani sababli, dunyoning deyarli barcha hududlari, jumladan, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi mamlakatlar ham urush oqibatlaridan aziyat chekdi. Shu tariqa XX asr boshlarida vujudga kelgan xalqaro vaziyat, rivojlangan imperialistik davlatlarning dunyo birinchiligi uchun kurashi oxir-oqibat insoniyat tarixidagi eng yirik urushni keltirib chiqardi.

Shunday qilib 1914 yil 28 iyul kuni Avstriya-Vengriya imperiyasining taxt vorisi shahzoda Frans Ferdinand harbiy mashqlarni kuzatish uchun Bosniya markazi Sarayeva shahriga keldi. Bu tashrif shunchaki sayr bo‘lmagan. 28 iyul serblarning motam kuni bo‘lib, aynan shu kuni Serbiya chegaralarida harbiy mashqlar o‘tkazilishi bir ig‘vo edi. Frans Ferdinandning bunday provokatsion

harakati serb millatchi doiralarining g‘azabini qo‘zg‘atdi. Tonggi soat o‘n birga yaqin Milyak daryosi yaqinida serb millatchi tashkiloti – (Yosh Bosniya) a‘zosi, 20 yoshli Gavrilo Prinsip oldidan o‘tib ketayotgan shahzoda Frans Ferdinand va uning rafiqasini otib o‘ldiradi. Bundan g‘azablangan Avstriya-Vengriya imperatori o‘z hukumatidan bu qotillikka javoban Serbiyaga urush e‘lon qilishni talab qildi. [4-B. 25] Bu mojaroga “Antanta” davlatlari aralashdi. Xususan, Rossiya mojaroni tinch yo‘l bilan hal qilishni va bahsni Gaaga sudiga yuborishni taklif qildi. Biroq 26 iyul kuni Avstriya-Vengriya ultimatum talablari bajarilmaganini aytib, o‘z armiyasini Serbiya chegarasiga olib keldi. 28 iyulda Serbiyaga qarshi urush e‘lon qilindi va Belgrad o‘qqa tutila boshlandi. Bu vaziyatda Rossiya imperiyasi Serbiyaning bosib olinishiga jum qarab tura olmadi. 31 iyulda Rossiya armiyaga umumiyo safarbarlik e‘lon qildi. Voqealar rivojini jimgina kuzatib turgan Germaniya agar Rossiya safarbarlikni to‘xtatmasa, urush e‘lon qilishini bildirdi. Rossiya bunga javob bermadi va harbiy harakatlarni davom ettirdi. Shundan so‘ng Germaniya 1 avgust kuni Rossiyaga, 3 avgust kuni Fransiyaga urush e‘lon qildi. Bunga javoban 4 avgust kuni Angliya Germaniyaga urush ochdi. Shutariqa Birinchi jahon urushi boshlanib ketdi. [5-B. 34]

Urush dastlab Yevropa mintaqasida yoyilgan bo‘lsa-da, biroq tez orada Yevropa chegarasidan chiqib ketib, sharq mamlakatlariga ham o‘z ta’sirini bevosita o‘tkazdi. Bu urush davrida sharq mamlakatlarining ko‘pchiligi g‘arb davlatlari tomonidan mustamlaka qilingan edi. Asosan ko‘plab sharq davlatlari mustamlakachi sifatida urushga kirishdi. Masalan sharqiy osiyoda joylashgan Yaponiya urushga Germaniya bilan ilgari mavjud bo‘lib, rivojlanayotgan siyosiy raqobatdan foydalanib, 1914-yilning avgustida Antanta tomonida urushga qo‘sildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Germanianing Osiyo va Tinch okeanidagi mustamlakalarini egallash va o‘z ta’sirini kengaytirishdan iborat edi. 1914-yilda Yaponiya Germanianing Xitoydagagi Shandong yarimorolida joylashgan Tsingtao portini bosib oldi. Shuningdek Tinch okeanidagi ko‘plab nemis orollari Marshall, Karolin, Marian hududlarini ham egalladi. Umuman olganda Yaponiya urushga kam kuch bilan qatnashib, ko‘plab mustamlaka hududlarni egalladi. Iqtisodiy bir necha jihatdan kuchayib, harbiy sanoat va eksport rivojlandi. Yaponiya Tinch okean mintaqasidagi asosiy kuchlardan biriga aylanib qoldi. Yaponiya Antanta tarafdan urushga kirganligi sababli versal konfrensiyasida g‘olib davlat sifatida ishtirok etdi. Yaponiya birinchi jahon urushidan harbiy yo‘qotishsiz chiqib, ko‘plab hududiy va iqtisodiy foyda oldi. Bu yutuqlar Yaponianing keyinchalik militaristik siyosatini va Ikkinchi jahon urushiga olib boruvchi yo‘lni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. [6-B. 26] Yana bir sharq mamlakatlarida biri bu Xitoy bo‘lib, undagi ichki vaziyatlar ham keskin edi. Markaziy hokimiyat zaif,

mamlakatda tartibsizlik, ichki nizo va harbiy qo'mondonlar o'rtasida kurash davom etayotgan edi. 1911-yilda Xitoyda Sin sulolasi ag'darilib, respublika e'lon qilingan edi. Birinchi jahon urushi davrida Xitoy urushga bevosita harbiy jihatdan faol qatnashmagan bo'lsa-da, bu urush uning siyosiy va ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Asosiy urush boshlanganida Xitoy betarafligini e'lon qilgan edi. [7-B. 18] Biroq 1917-yilda Xitoy Antanta davlatlari tomonida urushga kirganini rasman e'lon qildi. Bu qaror Germaniyaning Xitoydagi manfaatlariga qarshi qaratilgan edi. Xitoy ko'plab ishchi kuchini Fransiya va Britaniya armiyalariga yordam berish uchun Yevropaga yuboradi. Ular front ortida yo'llar qurish, okoplar qazish, o'liklarni ko'mish, yuk tashish kabi og'ir ishlarda qatnashgan. Ko'plari kasallik yoki bombardimon tufayli halok bo'lgan, lekin ularning xizmati urush tarixida ko'p hollarda tilga olinmaydi. Urushdan keyingi siyosiy oqibatlar Versal konferensiyasi Xitoy urushda g'olib tomon safida bo'lgan bo'lsa-da, 1919-yilgi Versal tinchlik konferensiyasida unga adolatli munosabat ko'rsatilmadi. Xitoy Germaniyaga tegishli bo'lgan Shandong viloyatini qaytarib olishni xohlagan edi, ammo bu hudud Yaponiyaga berildi. Bu qaror Xitoyda kuchli norozilik largaa sabab bo'ldi. 1919-yil 4-mayda Pekinda minglab talabalar va ziyorolar namoyishga chiqib, Versal bitimiga, Yaponiya bosqiniga va hukumatning zaifligiga qarshi norozilik bildirdi. Bu harakat keyinchalik butun Xitoy bo'y lab yoyildi va milliy uyg'onish, siyosiy faolli jarayonini boshlab berdi. Bu harakat Xitoyda keyinchalik kommunistik va millatchilik harakatlarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. [8-B. 52] Birinchi jahon urushi davrida Hindiston Britaniya imperiyasining eng muhim mustamlakalaridan biri bo'lib, urushda muhim rol o'ynadi. Hindiston rasmiy jihatdan urushga kirgan emas, lekin Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgani uchun uning nomidan harbiy harakatlarda faol qatnashgan. Ko'plab hind askarlari janglarda jasorat ko'rsatishgan, lekin ko'plari og'ir sharoitlar va kansitishlarga duch kelgan. Bu asosan Britaniya imperiyasining og'ir siyosat olib borganidan dalolat beradi. Urush davomida 60 mingdan ortiq hind askarlari halok bo'lgan, minglab kishilar yaralangan. Hindiston Britaniyaga nafaqat askar, balki katta miqdorda moliyaviy yordam va resurslar bilan ham xizmat qilgan. Urush uchun oziq-ovqat, paxta, ko'mir, temir, transport vositalari va dori-darmon yetkazib bergen. Bu Hindiston ichki iqtisodiyotini tang ahvolga solgan, narxlar esa oshib ketib, ko'plab ocharchiliklarni keltirib chiqargan. Hind xalqi Britaniyadan urushdan keyin muayyan siyosiy erkinliklar kutgan edi. Biroq urushdan keyin Britaniya berilgan va'dalarni bajarmadi. Bu esa hind xalqi orasida keng noroziliklarga olib keldi. Britaniya mustamlakasiga qarshi siyosiy ongni uyg'otib, mustaqillik harakatlari boshlanishiga turtki bo'ldi. [9-B. 34] Usmonli imperiyasi esa Germaniya tomonida urushga qo'shildi. Usmonli imperiyasi mustamlaka

hududlari Arabiston, Falastin va Suriya mustamlaka sifatida janglar olib bordi. Shunday siyosiy vaziyatda Arablar Usmonlilarga qarshi xalq xarakatlari olib bordi. Bunga misol qilib 1916 yildagi Arab qo‘zg‘olonini ko‘rsatish mumkin. Bu og‘ir urush natijasida Usmonli imperiyasi parchalanib, Yaqin Sharqdagi ko‘plab hududlar Britaniya va Fransiya protektoratiga aylantirildi. [10-B.42]

Bu katta urushdan asosiy xulosa shuki urush faqat yevropa davlatlariga emas balkim Sharq mamlakatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu urush asrlar davomida Yaqin Sharqning ko‘p qismini boshqargan Usmonli imperiyasi qula shiga olib keldi. Usmonli imperiyasining bo‘linishi esa Iraq, Iordaniya, Suriya va Livan kabi mintaqadagi yangi milliy davlatlar yaratilishiga xizmat qildi. Birinchi jahon urushi nafaqat Yevropani, balki Sharq mamlakatlarini ham keng qamrovda ta’sirga oldi. Urush natijasida Hindistonda iqtisodiy qiyinchiliklar va urushdagi ishtirok mustaqillik harakatlarini kuchaytirdi. Xitoyda milliy norozilik kuchaydi va siyosiy uyg‘onishlar boshlangan davrga asos soldi. Yaponiya esa bu urushdan foyda ko‘rib, siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi. Buning natijasida sharq mamlakatlarida yangi siyosiy va madaniy harakatlar yuzaga keldi. Zamonaviy siyosiy g‘oyalari millatchilik, respublika tuzumi, ijtimoiy islohotlar keng tarqala boshladi. Ta’lim, matbuot va san’at sohalarida ham yangilanishlar sodir bo‘ldi. Umuman olganda, birinchi jahon urushi sharq dunyosining siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirdi va ularning kelgusidagi taraqqiyot yo‘liga asos soldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oxford AQA GCSE History: Conflict and Tension between East..
2. Фигес, Норман “Первая мировая война.” Издательство ACT, 2014.
3. The Impact of the Economic Crisis on East Asia:
4. Керекеш, Михаил. “Первая мировая война.” Издательство Альфа-Книга, 2014.
5. Кендалль, Итан. “Первая мировая война причины и последствия” Издательство Весь Мир, 2015.
6. Харт. Питер. “Первая мировая война.” Издательство ACT, 2018.
7. Стругов, Дмитрий “Первая мировая война: причины, ход, последствия” Издательство Эксмо, 2019.
8. Сирота, Владимир. “Первая мировая война. Что случилось на самом деле?” Издательство Алгоритм, 2017.
9. Калмыков, Александр “Первая мировая война. История в картинках.” Издательство Эксмо, 2014.
10. Петров, Евгений. “Война, которую не хотели. Почему и как началась Первая мировая” Издательство Эксмо, 2017.